

UDK: 811.512.133'282(575.171)

## ISMLAR – TIL VA MADANIYATNING INTEGRATIV BIRLIGI SIFATIDA

**Manzura Karimboyeva**

*O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: [777manzura777@gmail.com](mailto:777manzura777@gmail.com)*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2931-1788>*

**Annototsiya.** *Maqolada antroponimik birliklar ichida faol qo‘llaniladigan ismlarning lingvomadaniy jihatlari ochib berilishga harakat qilingan. Ismlarda aks etgan xalq qadriyatlari va orzu-istaklarini yoritish asosiy maqsad qilib olingan.*

**Kalit so‘zlar:** *antroponimika, ism, madaniyat, qadriyat, orzu-istak, xalq.*

Jahon tilshunosligida XX asr oxirida shakllana boshlagan antroposentrik tilshunoslik tilni uning egasi bilan bog‘lagan holda tadqiq qilishni taqoza qiladi. Natijada tilshunosligimizda “antropotsentrizmning pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya” kabi bir qancha yo‘nalishlari vujudga keldi<sup>1</sup>. Lingvokulturologiya til va bir qancha fanlarning integrativlashuvi natijasida shakllanadi<sup>2</sup>. Lingvomadaniyatshunoslik lisoniy birliklar orqali xalq madaniyati, urf-odatlar va ishonchlarini ifodalaydi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining obyektini lingvokulturemalar hisoblanadi. Lingvomadaniy birliklarni tadqiq qilishda lisoniy birliklar bilan bir qatorda xalq tarixi, etnosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va e‘tiqodlari asosiy vazifani bajaradi. Til va madaniyatning integrativ birliklari sifatida milliy qadriyatlarini ifodalovchi lisoniy birliklardan tashqari milliy shaxs nomlari ham o‘rganiladi. Chunki ismlar shaxslarni farqlashi bilan birga xalq orzu-umidlari va milliy madaniyatini ifodalaydi. Antroponimik birliklarni lisoniy jihatdan o‘rganish ancha rivojlangan yo‘nalishlardan. Bu borada jahon tilshunosligida ham katta ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Antroponimik birliklarni lingvomadaniy aspektga asoslangan tarzda yoritish tilshunosligimizda rivojlanayotgan yodashuvlardan biri. Nom berishda nominator biror bir maqsadga yoki orzu-umidiga tayanadi.

O‘zbek tili antroponimikasining yetuk tadqiqotchisi E.Begmatov “Ismlarning sirli olami” monografiyasida o‘zbek tili antroponimik tizimidagi ismlarni yig‘ib, ularning motivlari va atalish sabablarini ochib berishga harakat qilgan. Olim bolaga ism berish, bu jarayon bilan bog‘liq urf-odatlar, tushuncha va tasavvurlar, har bir ismning ma‘nosi, uning zamirini tashkil etuvchi holatlar xalqimizning qadimiy qadriyatlari ekanligini ko‘rsatgan. Xalqimiz orasida “xosiyatli” va “xosiyatsiz” ism deb baho beriluvchi ismlar

<sup>1</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

<sup>2</sup> Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: “Fan”, 2013.

mavjud. Aslida esa har bir ism negizida xalqning uzoq yillik qadriyatlari va ota-onaning armonli orzulari aks etadi. Xalqimizda qiz farzandlardan keyin o'g'il farzand tug'ilishini niyat qilib beriladigan ismlarga: O'g'ilo, O'g'ilkerak, O'g'ilmurod, O'g'ilnabot, O'g'ilniyoz, O'g'ilniso, O'g'ilnoz, O'g'ilnor, O'g'ilobod, O'g'ilomon, O'g'ilpochcha, O'g'ilpochsha, O'g'ilsafar, O'g'ilsora, O'g'iltoj, O'g'iltoy, O'g'iltosh<sup>3</sup> va yana boshqa shakllari mavjud. Xalq bu ismlar orqali o'g'il farzand niyatida ekanligini, keying farzandning o'g'il bo'lishligini niyat qilayotganligini ifodalagan. Bundan tashqari tanasida qizil dog' va xol bilan tug'ilgan bolalarga shu belgini ifodalovchi ismlar berilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa belgini atash orqali uning bola hayotiga zarar yetkazmasligiga ishonishdir. Xolmurod, Xoljon, Xoliboy, Xolida, Xolbibi, Xolbadal, Xolbeka, Xolberdi, Xolbo'ri, Menglitursin, Menglixol kabi ismlar va "xol" komponentli bi qancha ismlar ham mavjud. Bundan tashqari tanadagi qizil dog'larni ifodalovchi "toji" va "nor" komponentli ismlar ham tilimizning antroponimika sohasida anchagina. "Nor" leksemi arab va fors tili lug'atida ham qizil rangga ishora qiladigan ma'noni anglatadi. Fors tilida nor- anor, arab tilida esa o't, olov<sup>4</sup> ya'ni majoziy ma'noda do'zaxga ishora qiladi. Shu boisdan ham Navro'z Bekmuradov "Eng chiroyli ismlar va ularning ma'nolari" monografiyasida "nor" komponentli ismlarni "Qo'yish tavsiya qilinmaydigan ismlar" qatorida keltirgan. Lekin ismlarni qo'yish tavsiya qilinadigan va qilinmaydigan kabi guruhlariga ajratish o'rinli emas. Chunki ism sifatida keluvchi leksema o'zbek tilining lug'aviy boyligi va xalqning o'ziga xos qadriyatlari aks etgan madaniy koddir. Ism berishdan oldin tegishli mutaxassislar bilan maslahatlashish ma'qul.

Bugungi kunda tilimizdagi antroponimik birliklarni turli aspektlarda tadqiq qilish faol. Badiiy asar tilidagi va shevalarimizda mavjud shaxsni nomlovchi leksemalarni tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlariga yondoshgan holda o'rganish o'zbek tili antroponimik tadqiqotlari safini kengaytiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
2. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: "Fan", 2013.
3. Begmatov E. A. O'zbek ismlari ma'nolari. – Toshkent: "O'zbekiston millim ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
4. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – b. 388.

<sup>3</sup> Begmatov E. A. O'zbek ismlari ma'nolari. – Toshkent: "O'zbekiston millim ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

<sup>4</sup> Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – b. 388.